

**SHARTNOMA № 1**  
(Mahsulot yetkazib berish haqida)

"25" yanvar 2022 yil

**Nurota tuman**

"KIDS KITCHEN GROUP" MCHJ bundan buyon ta'minotchi deb yuritiladi nomidan nizomi asosida faoliyat ko'rsatuvchi rahbari G.Narziyeva hamda ikkinchi tomondan "Nurota tuman maktabgacha ta'lim bo'limi" bundan buyon iste'molchi deb yuritiladi nomidan nizomi asosida faoliyat ko'rsatuvchi rahbari v.v.b J. Boboqandov ushbu shartnomani tuzdilar.

**1. SHARTNOMA PREDMETI**

1.1 Ushbu shartnoma bo'yicha ta'minotchi iste'molchining buyurtmasiga asosan belgilangan oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib beradi. Iste'molchi esa oziq-ovqat mahsulotlarini belgilangan tartibda qabul qiladi.

1.2 Ta'minotchi va iste'molchi uchun:

T/r	Oziq-ovqat mahsulotlari nomi	O'lchov birligi	Miqdori	Narxi	Summasi	Yetkazib berish muddati
1	Sariyog' 82,5%	1 kg	2 160	50 000	108 000 000	31.01.2022 yil
2	Tuxum	1 dona	12 000	1 200	14 400 000	31.01.2022 yil
3	Sir	1 kg	160	22 000	3 520 000	31.01.2022 yil
4	Kartoshka	1 kg	3 465	5 000	17 325 000	31.01.2022 yil
5	Mandarin	1 kg	2 285	19 500	44 557 500	31.01.2022 yil
6	Banan	1 kg	934	20 000	18 680 000	31.01.2022 yil
7	Quruq meva	1 kg	30	20 000	600 000	31.01.2022 yil
	<b>Jami:</b>				<b>207 082 500</b>	

**Summa: 207 082 500 (ikki yuz etti million sakson ikki ming besh yuz) so'm**

**2. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI.**

**Ta'minotchining majburiyatlari:**

2.1 Shartnomaning 1.2 bandida ko'rsatilgan miqdordagi va sifatdagi oziq-ovqat mahsulotlarini iste'molchiga yuk xati bilan topshirish.

2.2 Agarda shartnoma shartlariga muvofiq deb topilsa, mahsulotlarni tashib berish.

**Iste'molchining majburiyatlari:**

2.3 Oziq-ovqat mahsulotlarini 2 kun muddatda ko'zdan kechirish. Mahsulotlarni mazkur shartnoma talablariga mos kelmasligi aniqlangan taqdirda, iste'molchi oziq-ovqat mahsulotlarini qabul qilmaydi.

2.4 Oziq-ovqat mahsulotlarini qabul qilinganligi to'g'risida har hafta yakuni bilan 1 ta ishonch qog'ozi bilan rasmiylashtirish majburiyatini oladi.

2.5 Shartnoma belgilangan tartibda oziq-ovqat mahsulotlari haqini to'laydi.

**3. SHARTNOMA SUMMASI VA HISOB-KITOB TARTIBI.**

3.1 Mazkur shartnoma summasi so'mda haq to'lanadi.

3.2 Mazkur shartnoma bo'yicha hisob-kitoblar pulni ko'chirish yo'li bilan oldindan 30 foizini to'lash va mahsulot qabul qilingan paytdan boshlab 30 kun ichida qolgan 70 foizini to'lashni amalga oshiradi.

3.3 Ta'minotchining aybi bilan iste'molchi oziq-ovqat mahsulotlarini ko'zdan kechirish imkoniyatiga ega bulmasa oziq-ovqat mahsulotlari haqini to'lashni kechiktirishga haqli.

#### **4. MAHSULOTLARNI TOPSHIRISH SHARTLARI.**

4.1 Oziq-ovqat mahsulotlarining tasodifan nobud bo'lishi mahsulotlarni topshirilgan paytdan boshlab iste'molchiga o'tadi.

• 4.2 Oziq-ovqat mahsulotlarini topshirishdan boshlab kelishilgan muddatga kadar ta'minotchi sifatiga kafolat beradi.

4.3 Iste'molchi mahsulotlarni qabul qilib olishda mahsulot miqdorining kamligi, sifatsizligi aniqlangan taqdirda mahsulotlarni qabul qilib olmaslik xuquqiga ega.

#### **5. SHARTNOMANING BAJARISH MUDDATI.**

5.1 Shartnoma taraflar tomonidan imzolaniib g'aznachilik bo'linmasidan ro'yxatga olingandan boshlab qonuniy kuchga kiradi va amal qilish muddati «31» dekabr 2022 yilgacha qadar etib belgilandi.

#### **6. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI.**

6.1 Mahsulotlarni topshirish muddatini buzganlik uchun aybdor taraf ikkinchi tarafga yetkazilgan zararni to'liq qoplaydi va 0.4 foiz miqdorda jarima to'laydi.

6.2 To'lovni kechiktirilganligi uchun iste'molchi xar kechiktirilgan kunga to'lovi kechiktirilgan summaning 0.4 foizi miqdorida, lekin ushbu summaning 50 foizidan oshmagan miqdorda tovon to'laydi.

6.3 Boqimandani to'lash taraflarni shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

6.4 Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan taraflarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun xujjatlariga muvofiq belgilanadi.

#### **7. NIZOLARNI HAL QILISH.**

7.1 Ushbu shartnoma yuzasidan taraflar o'rtasida kelib chiqadigan nizo va ziddiyatlar taraflar o'rtasida muzokaralar olib borish yo'li bilan xal etiladi.

7.2 Muzokaralar olib borish yuli bilan nizoni xal etish imkoniyati bo'lmagan taqdirda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi asosida tegishli sud organlariga murojaat etiladi.

#### **8. FORS-MAJOR VA JAVOBGARLIKDAN OZOD ETISH.**

8.1 Tomonlarning xohish istagiga mutlaqo bog'liq bo'lmagan hollarda noqulay ob-xavo sharoitlari, zilzila, suv toshqini va boshqa tabiiy ofatlar (fors-major) tufayli yetkazib berilmagan yoki to'lab berilmaganligi shartnoma shartlarini ijro etishi buzilgan deb hisoblanmaydi va ushbu holatda tomonlarni shartnomani bajarish mudati kelishilgan muddatga kechiktriladi.

#### **9. BOSHQA SHARTLAR.**

9.1 Shartnoma taraflarning o'zaro kelishuviga muvofiq yoki bir taraf shartnoma shartlarini jiddiy ravishda buzgan taqdirda ikkinchi tarafning talabi bilan bekor qilinishi mumkin. Shartnomani bir taraflama bekor qilish yozma taklif berish yo'li bilan amalga oshiriladi. Taklif olingandan so'ng 30 kunlik muddat ichida unga javob olinmagan taqdirda shartnoma bekor qilingan hisoblanadi.

9.2 Taraflar o'zlarining yuridik manzillari va boshqa rekvizitlari o'zgarganligi xaqida bir-birlarini 3 kunlik muddatda xabardor qilishlari shart.

9.3 Shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yozma ravishda bajarilgan va taraflarning vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan xoldagina xaqiqiydir.

9.4 Shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo'lib, ikkalasi ham bir xil yuridik kuchga ega hisoblanadi va taraflarga bir nusxadan beriladi.

9.5 Shartnomaga ilovalar uning ajralmas qismini tashkil etadi.

10. TARAFLARNING MANZILI VA BANK REKVIZITLARI.

«TA'MINOTCHI»

«ISTE'MOLCHI»

"KIDS KITCHEN GROUP" MCHJ

"Nurota tuman maktabgacha ta'lim bo'limi"

**Manzil:** Karmana tuman Farg'ona ko'chasi 11-uy  
**Bank nomi:** Infin bank Navoiy filiali  
**Hisob raqam:** 20208000005126439001  
**MFO:** 01148 **INN:** 306540961  
**Tel/faks:** 90 665-22-66

**Manzil:** Nurota tuman Shodlik ko'chasi 47-uy  
**Bank nomi:** Toshkent shahar Markaziy bank  
**SHXR:** 100022860122387091100251001  
**MFO:** 00014 **INN:** 305149506  
**OKONX:** 04443  
**Tel/faks:** 79 523-26-31  
**G'aznachiligi nomi:** Nurota tuman bo'limi  
**G'anachilik hisob raqam:** 23402000300100001010  
**G'anachilik INN:** 201122919



Rahbar: G.Narziyeva



Rahbar y.v.b J.Boboqandov

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA  
HUQUQIY XULOSA**

**№**

**1. Loyihaning turi**

Shartnoma

**2. Loyihaning nomi**

Mahsulot yetkazib berish haqidagi 1-sonli shartnoma

**3. Loyiha ishlab chiquvchi tashkilot va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot.**

Nurota tuman maktabgacha ta'lim bo'limi 25.01.2022 yil

Nurota tuman maktabgacha ta'lim bo'limi bilan "KIDS KITCHEN GROUP" MCHJ o'rtasida rasmiylashtirilgan mazkur shartnoma amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq.

**Bosh yuristkonsult**



**M.Nasirova**

**28.01.2022 yil**

**"ТАСДИКЛАЙМАН"**

Нурота туман мактабгача таълим бўлими мудирини в.в.б:  
**Ж.Бобоқандов**

Нурота туман мактабгача таълим бўлимига қарашли мактабгача таълим ташкилотларида тарбияланаётган болалар учун олинадиган озиқ-овқат маҳсулотлари нархини аниқлаш бўйича танлов комиссиясининг 1/6-сонли йиғилиш баённомаси.

**25 январ 2022 йил**

**Нурота шаҳри**

Нурота туман мактабгача таълим бўлимининг 05.01.2022 йилдаги №1-сонли буйруғи билан ташкил этилган танлов комиссиясининг аъзолари қатнашдилар.

Комиссия аъзолари:

Бош ҳисобчи ўринбосари:

Ш.Тошев

Озиқ-овқат маҳсулотлари ҳисоби бўйича

Р.Жумаев

Давлат харидлари ва шартномалар бўйича мутахасис:

А.Мажидов

Товар моддий қимматликлар ҳисоби бўйича ҳисобчи:

П.Турсунов

Ходимлар билан ҳисоб-китоблар бўйича ҳисобчиси:

Ф.Файзиев

**КУН ТАРТИБИДА:**

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 27 сентябрдаги ПҚ-3953 сонли қарорининг 27-бандига асосан озиқ-овқат маҳсулотларининг харидлари тўғридан тўғри шартнома тузадиган идоравий танлов комиссиялари томонидан баҳоланадиган энг мақбул таклифларни танлаб олиш йўли билан танлов амалга оширилиши қайд этилган. Шунга асосан танлов савдосига тақдим этилган етказиб берувчиларнинг тижорат таклифларидаги нархларини солиштирма (рақобат) варақаси таққослаб кўрилди.

№	Маҳсулотларнинг номи	Ўлчов бирлиги	"Kids Kitchen Group" МЧЖ	"Food For A Child" МЧЖ	"Болаларни соғлом овқатлантириш" МЧЖ
1	Сариёғ 82,5%	кг	50 000	51 000	52 000
2	Тухум	дона	1 200	1 300	1 330
3	Сыр	кг	22 000	23 000	23 500
4	Картошка	кг	5 000	5 500	5 700
5	Мандарин	кг	19 500	20 500	21 000
6	Банан	кг	20 000	21 000	22 000
7	Қуруқ мева	кг	20 000	21 000	21 500

Таққослаб кўриш натижасида комиссия аъзолари

**ҚАРОР ҚИЛИШДИ:**

1. Нурота туман мактабгача таълим бўлимига қарашли мактабгача таълим ташкилотларида тарбияланаётган болалар учун озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари қуйидаги таъминотчидан сотиб олинсин.

№	Таъминотчи	Нархларнинг солиштирма (рақобат) варақаси тартиб рақами ва бирлик ашё нархи (сўмда)
1	"Kids Kitchen Group" МЧЖ	Рақобат варақасининг нархлари солиштирилиб кўрилганда "Kids Kitchen Group" МЧЖнинг нархлари маъқул деб топилди

2. Танлов якунлари бўйича "Kids Kitchen Group" МЧЖ билан озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини сотиб олиш учун 207 082 500 сўмга шартнома тузиш учун музокарага киритилсин.

3. Танлов комиссиясининг баённомаси ўқиб берилди ва тўғри тузилди деб тан олинсин.


Комиссия аъзолари:

Бош ҳисобчи ўринбосари:




Ш.Тошев

Озиқ-овқат маҳсулотлари ҳисоби бўйича ҳисобчи:



Р.Жумаев

Давлат харидлари ва шартномалар бўйича мутахасис:



А.Мажидов

Товар моддий қимматликлар ҳисоби бўйича ҳисобчи:



П.Турсунов

Ходимлар билан ҳисоб-китоблар бўйича ҳисобчиси:



Ф.Файзиев

№	Маҳсулотнинг номи	Бирлиги	"Kids Kitchen Group" МЧЖ	"Food For A Child" МЧЖ	Ўрта ҳисоб
1	Семла 82.8%	кг	80 000	81 000	80 500
2	Тўғри	дона	1 300	1 300	1 300
3	Саб	кг	22 000	23 000	22 500
4	Қадоғча	кг	6 000	6 500	6 250
5	Мандалин	кг	19 300	20 800	20 050
6	Ёлан	кг	20 000	21 000	20 500
7	Қурак масс	кг	20 000	21 000	20 500